

Jizzax politexnika instituti huzuridagi Paxtakor sanoat texnologiyalari texnikumi 2019 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-sonli «Professional ta'lism tizimini yanada takomillashtirishga doir chora tadbirlar to'g'risida»gi farmoni asosida tashkil etilgan bo'lib, ta'lism muassasasi binosi 4 qavatdan iborat bo'lib, mavjud 32 ta o'quv xonalaridan to'liq foydalanib kelinmoqda. Texnikumning quvvati 720 o'ringa mo'ljallangan, 2023-2024 o'quv yilida 451 nafar talaba tahsil olib kelayotgan bo'lib to'ldirish koeffitsenti 0,47 ni tashkil etadi.

Hozirgi vaqtida texnikumda Jizzax potitexnika institutining sirtqi bo'lim ta'lism yo'nalishi talabalari o'quv binoning 3-4 qavatlarida faoliyat yuritib kelmoqda.

Texnikumda 1 ta o'quv binosi, hamda 50 o'rinali yotoqxona, 150 o'rinali faollar zali va yopiq sport zal mavjud.

Paxtakor sanoat texnologiyalari texnikumida hozirgi kunda 15 ta mutaxassislik bo'yicha o'rtamaksus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlanadi.

2023-2024-o'quv yilida texnikum o'quvchilarining umumiyl soni 451 nafar bo'lib shundan 2-bosqichda 88 nafar, 1-bosqich kunduzgi bo`limda 264 nafar,sirtqi bo`limda 58 nafar,dual ta`limy o'nalishida 41 nafar o'quvchilar tahsil olmoqda. O'quvchilarining 184 nafarini o'g'il bolalar 267 nafarini qizlar tashkil etadi.

Texnikumda ta'lism olayotgan talabalarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi uchun sharoitlar yaratilgan. Jumladan, jismonan sog'lom bo'lib o'sib rivojlanishi uchun texnikumda sport zal mavjud bo'lib, o'quvchilar ixtiyoriga topshirilgan.

O'quvchilarining qo'shimcha mashg'ulot bilan shug'ullanishi uchun texnikum kutubxonasida badiiy adabiyotlar va fanlardan qo'shimcha o'qitish materiallari fan o'qituvchilari tomonidan yaratilib kutubxonaning o'quv xonasiga joylashtirilgan.

Bundan tashqari texnikum kutubxonasiga Jizzax politexnika institutining "Muxandislik kommunikatsiyasi", "Umumtexnika fanlari", "Oliy matematika", "Transport vositalari muxandisligi", "Muxandislik va kompyuter grafikasi", "Kimyoviy texnologiya", "Qurilish materiallari va konstruksiyalari", "Ijtiomiy fanlar", "Iqtisodiyot va menejment" va "Metrologiya va standartlashtirish "kabi institut kafedralarining professor o'qituvchilari tomonidan texnikum talabalariga yo'nalishlari bo'yicha "Maxorat darslari" hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 6-martdag'i "Professional ta'lism muassasalarini metodik va ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 44-son buyrug'i 3.3-bandida oliy ta'lim muassasalarini tomonidan professional ta'lism muassasalariga ilmiy va metodik yordam ko'rsatish ishlari tashkil etib kelinmoqda

Jizzax politexnika instituti xuzuridagi Paxtakor sanoat texnologiyalari texnologiyalari texnikumida 2022-2023 o'quv yilida 10 ta yo'nalish bo'yicha 198 nafar o'quvchi bitirgan bo'lib, shulardan 63 nafarini qizlar tashkil etadi
-Ushbu bitiruvchilardan 90 nafari OTM lariga o'qishga qabul qilingan.(Shundan 36 nafari qizlarni tashkil etadi)

-O'z mutaxassisliklar bo'yicha ishlayotganlar soni 32 nafarni tashkil etadi(Shundan 11 nafarini qizlar tashkil etadi)

-Tadbirkorlik bilan shug'ullanayotganlar soni 17 nafarni tashkil etadi(Shundan 5 nafari qizlarni tashkil etadi)

-Turli soxa vakillari bo‘lib shugullanayotgan bitiruvchilar 59 nafarni tashkil etadi(Shundan qizlar 11 nafarni tashkil etadi)

Hozirgi kunga qadar 2022-2023-o`quv yili bitiruvchilari orasidan bandligi ta`minlanmagan texnikum bitiruvchilari mavjud emas.

Paxtakor sanoat texnologiyalari texnikumida2023-2024-o`quv yilida o`quvchilar kontengenti to`g`risida ma`lumot

T/r	Ta`lim yo‘nalishlari		Jami o‘ quvchilar soni	Ta’lim turi xaqida ma’lumot				Dual ta`lim
	yo‘nalish kodi	yo‘nalish nomi		Shundan qizlar	Davlat granti asosida	To‘lov shartnomasi asosida	Sirtqi ta’lim	
1-bosqich o‘quvchilarining jami soni:		451	267	238	213	58	41	
KUNDUZGI TA`LIM		264	183	150	114			
1	50720701	Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasi va texnologiyasi (ishlab chiqarish turlari bo‘yicha)	13	11	10	3		
2	50710402	Elektr stansiyalari, tarmoqlari va tizimlari	20	2	10	10		
3	50410101	Buxgalteriya hisobi va audit	20	9	7	13		
4	50710101	Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo‘yicha)	19	15	10	9		
5	50711401	Avtomobil transportiga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash	12		10	2		
6	50610102	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari konvergentsiyasi	13	5	5	8		
7	50710702	Sanoat mexanigi	13	7	10	3		
8	50810501	Agronomiya (ekin turlari bo‘yicha)	19	8	19	0		
9	50710301	Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish	13	4	10	3		
10	50110102	Maktabgacha ta‘lim tashkiloti uslubchisi	31	31	16	15		
11	50110102	Maktabgacha ta‘lim tashkiloti uslubchisi	30	30	15	15		
12	50110102	Maktabgacha ta‘lim tashkiloti uslubchisi	30	30	14	16		
13	50110102	Maktabgacha ta‘lim tashkiloti uslubchisi	31	31	14	17		

T/r	Ta'lim yo'nalishlari		Jami o' quvchilar soni	Ta'lim turi xaqida ma'lumot				Dual ta'lim
	yo'nalish kodi	yo'nalish nomi		Shundan qizlar	Davlat granti asosida	To' lov shartnomasi asosida	Sirtqi ta' lim	
		SIRTQI TA`LIM	33			47	58	
14	50410101	Buxgalteriya hisobi va audit	16			21	21	
15	50410501	Bank ishi	16			21	21	
16	51040102	Avtotransport logistikasi	1	1	15	16		
		DUAL TA`LIM	16	41				41
17	50840101	Veterinariya meditsinasi	12	20				20
18	50710702	Sanoat mexanigi	4	21				21
2-bosqich								
2-bosqich o'quvchilarining jami soni:				88	35	47	41	
19	50720701	Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasi va texnologiyasi (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)	13	11	10	3		
20	50711401	Avtomobil transportiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash	14		6	8		
21	50710402	Elektr stansiyalari, tarmoqlari va tizimlari	14	1	6	8		
22	50410101	Buxgalteriya hisobi va audit	13	6	4	9		
23	50720701	Menejment	13	6	9	4		
24	50610401	Kompyuter injineringi	8	4	4	4		
25	50710301	Ekologiya va atrof muhitni himoya qilish	13	7	8	5		

Texnikumda 2023-2024-o`quv yilida sentyabr oyidan 2024 yil fevral oylari davomida **“1-oktyabr-Ustoz va murabbiylar kuni”**, Jizzax viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasining 2023 yil 24-noyabrdagi BQ-01-1747-sonli xatiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuniga bag'ishlangan bayram tadbirlariga tayyorgarlik

ko‘rish va ularni o‘tkazish to‘g‘risida”gi F-72-son farmoyishi 1-ilovasi bilan tasdiqlangan dastur ijrosini ta‘minlash maqsadida Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining nazorat rejasining 8-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida texnikumida bayroqlar, gerb davlat ramzlariga atab tadbir tashkil etilib hamda .”**8-dekabr-O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilingan kun**” sanasiga atab “**Baxtimiz qomus**”, “**Ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak!**” degan ezgu da‘vat asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma‘rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi mazmun-mohiyatini keng targ‘ib qilish.

“Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” Davlat dasturida sohaga oid belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash, “2024-Yangi yil bayrami”, ”Alisher Navoiyning 583 yilligiga bag`ishlangan “**Alisher Navoiy asarlari – milliy qadriyatlarimiz timsoli**” .

”, “14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun munosabati bilan “**Bobur qat’iyati – kuchli iroda va jasorat timsoli**””deb nomlangan madany va ma‘rifiy tadbir o‘tkazildi.Tadbirda texnikum o‘qituvchilari hamda o‘quvchilari faol ishtirok eishdi

Texnikumda 2024 yil 13 fevral kunida Jizzax viloyat xokimligi Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining 2024-yil 9-fevraldagagi N:01-146 yigilish bayoning 8-bandi hamda Jizzax viloyat Oliy ta‘lim ,fan va innovatsiyalar boshqarmasining 2024-yil 9-fevraldagagi N:VX/54-sonli xatlarining ijrosini ta‘minlab **“JAXOLATGA QARSHI MA‘RIFAT”** mavzusida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir bòlib ötdi.Tadbirda Paxtakor tuman xokimligi bosh mutaxasisi,deputatlar kengashi ma‘sul kotibi Sh.Karimov,tuman Ma‘naviyat-ma‘rifat bòlimi raxbari I.Xoliqov, tuman Axborot kutubxona raxbari M.Qonisheva lar hamda òquvchi-yoshlar qatnashdi.

Patakor snoat exnologiyalari texnikumida yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish,ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus (2-tashabbus ijrosi yoshlarni jismoniy chiniqtirish,ularning sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish)”Sog‘lom turmush tarzini keng tadbiq etish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-60/99 son xat ijrosi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi Jizzax politexnika institute huzuridagi Paxtakor sanoat texnologiyalari texnikumida 15.02.2024-yil kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2024-yil 5-fevral kuni ta‘lim sog‘liqni saqlash raqamlashtirish madaniyat va sport sohalarida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan masalalar va Jizzax viloyati Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar boshqarmasining 5-fevral 2024-yildagi BQ-01-167-son xatiga asosan. o‘quvchilarning vatanga bo‘lgan muhabbatini yanada oshirish maqsadida ertalabki saf tortish yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi kuylanib va shundan so‘ng,ertalabki sog‘lomlashtiruvchi mashqlar o‘tkazilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 6 sentyabrdagi 408- sonli “Professional ta‘lim muassasalarida ochiq darslar va master klasslarni tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi ” buyrug`ining ijrosini ta‘minlash maqsadida Paxtakor sanoat texnologiyalari texnikumida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilar tomonidan 2023 sentyabr 2024 fevral oylari davomida texnikum

direktorining buyrug`iga asosan “Ochiq o`quv mashgulotlarini o`tkazish jadvali ” tuzilib, ushbu jadval asosida ochiq o`quv mashg`ulotlari tashkil etildi.Ushbu ochiq o`quv mashg`ulotida 2 nafar o`qituvchi – “Ekologiya” va “Buxgalteriya hisobi va audit” yo`nalishlari maxsus fan o`qituvchilari **Ibratova E`tibor va Ropiyeva**

O`giloylar tomonidan o`tkazilgan o`chiq o`quv mashg`ulotlari viloyat miqiyosida ommalashtirishga hamda “Kompyuter injineringi”, “Maktabgacha ta`lim tashkiloti uslubchisi” yonalishlari maxsus fan o`qituvchilari **Subanova G`o`zal va Toxirova Nilifar** tomonidan o`tkazilgan ochiq o`quv mashg`ulotlari ta`lim muassasasida ommalashtirish uchun tavsiya etildi.

Texnikumda o`tilyotgan fanlarning sifat va samarodorligini yanada oshirish, o`quvchilar orasida fanlarni chuqur o`zlashtirishga erishish hamda fan o`qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarini yanda rivojlantirish maqsadida 2023-2024-o`quv yilining II-yarim yilligi uchun “Ochiq o`quv mashg`ulotlari jadvali” tuzilib,ushbu jadval asosida “Namunali dars”lar o`tilishi rejalashtirilgan.

Paxtakor sanoat texnologiyalari texnikumi “Paxtakor tuman elektr ta’minot korxonasi”, “Jizzax Ilmiy tadqiqot instituti Jizzax tajriba stansiyasi”, “PAXTAKOR SIFAT YOG” MCHJ, “AKFA BIRLIK” xususiy korxonasi, “Paxtakor Bandlikga ko‘maklashuvchi markaz”, “Paxtakor tuman gaz ta’minoti bo‘limi”, “Paxtakor tuman suv ta’minoti” MCHJ, “WORLD TREDING COMPANY” MCHJ, “Do’stlik tuman davlat xizmat agentligi”, “Paxtakor tuman telekommunikatsiya bog‘lanmasi”, “PAXTAKOR TEKS” MCHJ hamda “PAXTAKOR GOLD TEKSTILE” MCHJ kabi korxonalari bilan shartnomalar tuzilgan bo‘lib, texnikum talabalari tomonidan o`quv va ishlab chiqarish amaliyotlari muntazam ravishda o`tkazib kelinmoqda.